

---

## BUNYODKORLIK: TOSHLOQDAGI MAHALLALAR YO'LLARI ASFALT QILINMOQDA

Bugun yurtimizning qay bir hududiga bormang ulkan bunyodkorlik ishlariga guvoh bo'lasiz. Ayniqsa, yo'lsozlarimiz tomonidan mahallalardagi ichki yo'llar tez va sifatli qilib ta'mirlanmoqda. Ma'lumki, Toshloq tumanining olis va chekka hududlarida ham obodonlashtirish-bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Bugungi kunda So'kchilik, Axshakguzar, Qumqishloq MFYlarda bu boradagi ishlar jadal olib borilmoqda.

So'kchilik MFY hududidagi Xilol ko'chasida 3 km yo'lni asfaltlash ishlari sifatli qilib yakunlandi. Ushbu ko'cha asfaltlashtirish taklifi «Ochiq byudjet» axborot portalidagi «Mening yo'lim» loyihasida g'olib deb topilgan edi. 1 milliard 50 million so'mlik mablag' evaziga keng va ravon yo'llar barpo etildi. Tumanda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari natijasida Axshakguzar MFY hududida piyoda yo'laklari yangidan asfaltlanib, aholi ixtiyoriga topshirilmoqda.

Shu kunlarda Qumqishloq mahalla fuqarolar yig'inining Afsona ko'chasida 1,5 kilometr yo'lni asfaltlash ishlari olib borilyapti. Bu ishga Toshloq yo'llardan foydalanish unitar korxonasi zamonaviy texnikasi, 20 nafar malakali ishchi-mutaxassislari jalb etilgan.

**Toshloq tumani hokimligi axborot xizmati.**

2022-08-06 18:24:35